

PEDAGOGIKANING TIBBIYOTDA TUTGAN O'RNI

Ergasheva Zilolaxon

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi tibbiyot texnikumi
o'qituvchisi*

Ergasheva Dilnozaxon

*Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi tibbiyot texnikumi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogikaning tibbiyotda tutgan o'rni va ahamiyati o'rganilgan va tahsil qilingan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, tibbiyot, tibbiy xizmat, funksional, regulyatsiya.*

Istiqlol sharofati bilan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'lim, ijtimoiy muhofaza, sog'liqni saqlash kabi sohalarda qabul qilingan davlat hamda umummilliy dasturlar bu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish va jadallashtirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda har yili yangidan-yangi o'quv dargohlari, tibbiyot muassasalari, sport-sog'lomlashtirish majmualari barpo etilib, eng zamonaviy jihozlar, texnik uskunalar bilan ta'minlanayotir. Pedagoglar, murabbiy va tarbiyachilar, tibbiyot xodimlarining kasbiy mahoratini yuksaltirish, mehnatini har taraflama rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash barobarida, yurtimizda ota-onha mehridan mahrum, alohida e'tiborga muhtoj bolalar va nogironlarni tarbiyalash, ularning bilim olishi, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi uchun katta e'tibor ko'rsatilayotgani xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriylari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga haratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriylar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish. Pedagogika fanlari tizimi:

1. Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.
3. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga hos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.
4. Korrektzion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi. 2. Iqtisod – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi. 3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi. 4. Etika- shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliv insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi. 5. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. 6. Fiziologiya- o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi. 7. Gigiena – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi. 8. Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi. 9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, halq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi. 10. Madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi. 11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minalash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

Tabiiy ofatlar inson ongi va faoliyatidan tashqarida ro‘y beradigan talofatlar bo‘lib u tezlikda yoki asta-sekin sodir bo‘lishi insonlarni mo‘tadil yashash ishlash sharoitlarining buzilishi odamlarning o‘limi hamda qishloq xo‘jaligi hayvonlarining, moddiy boyliklarini yo‘q bo‘lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir. Tabiiy ofatlar: yer siljishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong‘in, qurg‘oqchilik, yer surilishi, qor ko‘chishi, yomg‘ir yog‘ishi. Bunday vaziyatlarda:

Transportirovka qilganda bemorlarning oyog‘I oldinda, behush holatda, ko‘p qon yo‘qotganda – boshi oldinda, zinapoyadan tushganda oyog‘i oldinda, pastga olib tushishda boshi oldinda bo‘ladi. Boshi yaralangan, kalla suyaklari va bosh miyasi shikastlangan bemorlar zambilda chalqancha yotqiziladi. Burun va jag‘ suyaklari shikastlanganda bosh tomoni baland ko‘tarilgan bo‘ladi, boshni oldinga sal engashtirib o’tkazib qo‘yilgan vaziyatda tashiladi. N.I.Pirogov bundan 100 yil oldin aytganidek, yaxshi saralanib taqsimlangan yaradorlar o‘z vaqtida kerakli yordamni olishi mumkin va ularga to‘g‘ri tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Yaradorlarni tashish usullari: Q o‘lda, yelkada, orqada, tashuvchi yordamida, bir yoki ikki tashuvchi yordamida, birin-ketin sanitariya zambili yordamida, tashuvchi ilmoqni aylana, sakiz soni va tugun shaklida yasab tashish.

Tibbiy evakuatsiya qilishning asosi, kasal va yaradorlarni ommaviy zaralanish o'chog'ida yig'ish, ularni olib chiqish, tibbiy evakuatsiya bosqichlarida transportirovka qilish, tibbiy yordam ko'tsatishdan iborat. Yaradorlarni evakuatsiya qilishni boshliq tashkil etadi. Feldsher rahbarligida yaradorlar qidiriladi va jang maydonidan olib chiqiladi. Feldsher yordamida sanitaritya transporti bilan BMP ga olib kelinadi. Agar texnika yetishmasa tez yordam bo'limiga transportyorlar bilan yetkaziladi. Yengil yaradorlarni batalyonning tibbiy nuqtasi (BNT) yoki polkning tibbiy nuqtasi (PTN) ga ularga piyoda-boshliq tayinlanib evakuatsiya qilinib, davolashga qoldiriladi. Yaradorlarni BTN yoki PTN ga yuborishda yo'llanma berladi. Og'ir yaradorlar tibbiy-sanitariya bo'limlariga samolyotda, vertolyotda yetkaziladi. Yaradorlarni evakuatsiya qilganda tibbiy hodim birga kuzatib borishi zarur. Yo'lida zarurat bo'lsa, tibbiy yordam ko'rsatiladi. Bemorni keyingi nuqtalarga topshirishda hujjati ham beriladi. N.I.Pirogov bundan 100 yil oldin aytganidek, yaxshi saralanib taqsimlangan yaradorlar o'z vaqtida kerakli yordamni olishi mumkin va ularga to'g'ri tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Yaradorlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish:

Birinchi tibbiy yordamga quyidagilar kiradi. Qon ketishini to'xtashish, jarohatni bog'lash, siniqlarga qo'lida yasalgan yoki tabelli shinalar qo'yish, kuchli og'riq bo'lganda og'riqsizlantirish (prodemol, morfin), zarur bo'lganda protivogaz kiygizish yoki kimyoviy vositalardan saqlanish uchun ularga qarshi vositlarni qo'llash. Ko'z, burun, og'iz, me'dani kuchsiz sodali suv bilan yuvish, sun'iy nafas berish, zidda zaxar (antidot) yuborish, yurakni bevosita uqalab ishga tushirish, radiatsiyaga qarshi tabletkalar berish.

Sanitariya bo'linmachalari, bo'linmalari va postlari ishini tashkil etish:

Ommaviy qurol qo'llanilganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun tashkilot, korxona, o'quv yurtida, temir yo'l transportida ishchilar, talaba va xizmatchilardan sanitariya bo'limchalari va bo'linmalari tashkil qilinadi. Havfli va juda shikastlanishda fuqorolar himoya inshoatlarida uch kundan kam bo'lmasliklari hamda oddiy inshoatlarda ham tashqariga chiqmasdan saqlanishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. □ T.: 1997
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. □ T.: 1997
3. Azizzo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya. Pedagogik mahorat. □ T.: □O'qituvchi□, 2003